



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING QARORI**

Samarqand sh., Ko‘ksaroy maydoni, 1-uy.

2025-yil 15-aprel

123-7-0-Q/25

Samarqand viloyati hokimligi

### **Samarqand shahar jamoat transportida tarif tizimini takomillashtirish to‘g‘risida**

“Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12, 16-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-59-son qarori ijrosini ta‘minlash hamda Samarqand shahri jamoat transportida transport kartalaridan foydalanuvchi yo‘lovchilar qamrovini oshirish va tabaqalashgan tariflarni joriy etish orqali shahar yo‘lovchi transporti korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida

### **Q A R O R   Q I L A M A N:**

1. Samarqand viloyati Transport boshqarmasining Samarqand shahri jamoat transporti tariflarini oshirish yuzasidan taklifi ma‘qullansin.

2. Samarqand shahri hududida shahar yo‘lovchi transporti – avtobus, elektrobus va tramvaylarda qatnovlarni amalga oshirish uchun cheklangan tariflar miqdori bir yo‘lovchi uchun:

a) qatnov naqd pul orqali amalga oshirilganda – 3 000 (uch ming) so‘m;

b) qatnov transport va bank kartasi orqali amalga oshirilganda 1 martalik cheklangan tarif miqdori – 2 000 (ikki ming) so‘m etib belgilansin.

3. Quyidagilar:

qatnovlar soniga bog‘liq holda jamoat transportida transport kartalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha tariflar miqdori 1-ilovaga;

elektron to‘lov tizimlari (transport kartalari)dan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli tariflar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Samarqand shahri hokimligi (F.Umarov), viloyat Transport boshqarmasi (R.Tojiyev) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillari va ekspertlarni jalb qilgan holda:

a) aholi orasida:

yangi tashkil etiladigan jamoat transporti yoʻnalishlarining afzalligi, qulayligi, tezkorligi hamda muntazamligi;

jamoat transportida elektron toʻlov tizimlaridan foydalanishning hamda tabaqalashtirilgan tariflarning afzalliklari va qulayliklari keng yoritilishini taʼminlasin;

b) tadbirkorlik subyektlari orasida “bosib oʻtilgan yoʻl” va “sifat” mezonlari boʻyicha bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqqan holda jamoat transporti faoliyatini moliyalashtirishning yangi tizimi jozibadorligi va kafolatlangan biznesga aylanayotganligi yuzasidan brifinglar oʻtkazsin.

5. Viloyat hokimining oʻrinbosari (A.Shukurov), viloyat Transport boshqarmasi (R.Tojiyev), Samarqand shahri hokimligi (F.Umarov):

Samarqand shahri jamoat transportida elektron toʻlov tizimi keng joriy etilishini inobatga olgan holda aholini yetarli miqdorda transport kartalari bilan taʼminlanishini;

shahar hududida transport kartalarini sotish shoxobchalarini tashkil etilishini;

jamoat transporti vositalari harakatini barcha yoʻnalishlarda kech soat 22:00ga qadar, turistik yoʻnalishlarda esa 24 soat davomida amalga oshirilishini taʼminlasin.

6. Viloyat Transport boshqarmasi (R.Tojiyev) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, oʻn kun muddatda qonun hujjatlariga muvofiq yoʻlovchilarni tashuvchi tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan shartnomalarga qonunchilikda oʻrnatilgan tartibda tegishli qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilishini taʼminlasin.

7. Viloyat televedeniyesi (D.Ismatov), “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari birlashgan tahririyati (F.Toshev)ga ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Viloyat hokimining 2023-yil 6-sentabrdagi “Samarqand shahar jamoat transportida tarif tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida” 246-7-0-Q/23-son qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining oʻrinbosari A.Shukurov zimmasiga yuklatilsin.

**Viloyat hokimi v.b.**



**A. Boboyev**

Samarqand viloyati hokimining  
2025-yil 15-apreldagi  
123-7-0-Q/25-son qaroriga  
1-ilova

**Qatnovlar soniga bog‘liq holda jamoat transportida transport kartalari orqali  
to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha tariflar**

**MIQDORI**

| <b>T/r</b> | <b>Tarif rejalarini nomlanishi</b>         | <b>Tarif turlari<br/>(kun)</b> | <b>Tarif rejalarining<br/>narxi,<br/>so‘m</b> |
|------------|--------------------------------------------|--------------------------------|-----------------------------------------------|
| 1.         | “Cheksiz” avtobus, elektrobus*             | 1                              | 7 000                                         |
|            |                                            | 5                              | 34 000                                        |
|            |                                            | 7                              | 47 000                                        |
|            |                                            | 10                             | 67 000                                        |
|            |                                            | 15                             | 101 000                                       |
|            |                                            | 20                             | 135 000                                       |
|            |                                            | 30                             | 200 000                                       |
|            |                                            | 90                             | 578 000                                       |
|            |                                            | 180                            | 1 030 000                                     |
|            |                                            | 365                            | 1 927 000                                     |
| 2.         | “Cheksiz” avtobus, elektrobus,<br>tramvay* | 1                              | 8 000                                         |
|            |                                            | 5                              | 46 000                                        |
|            |                                            | 7                              | 65 000                                        |
|            |                                            | 10                             | 92 000                                        |
|            |                                            | 15                             | 139 000                                       |
|            |                                            | 20                             | 185 000                                       |
|            |                                            | 30                             | 277 000                                       |

|  |  |     |           |
|--|--|-----|-----------|
|  |  | 90  | 788 000   |
|  |  | 180 | 1 447 000 |
|  |  | 365 | 2 715 000 |

Izoh\*: Imtiyozli transport kartalaridan foydalanuvchilar (*pensionerlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, talabalar, umumiy o'rta ta'lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari hamda texnikumlar o'quvchilari*) uchun 50% chegirma qo'llaniladi.

**Elektron to'lov tizimlari (transport kartalari)dan foydalanilgan holda bir soat  
ichida bir yo'nalishli yo'lovchi transportidan boshqasiga o'tish sonidan kelib  
chiqqan holda imtiyozli tariflar**

**MIQDORI**

| <b>T/r</b> | <b>Tarif rejalarini<br/>nomlanishi</b> | <b>To'lov tizimi</b>                       | <b>Tarif<br/>rejalarining<br/>narxi,<br/>so'm</b> |
|------------|----------------------------------------|--------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| 1.         | 1 soatlik A+A+A+A                      | Birinchi avtobusda to'lov*                 | 2 000                                             |
|            |                                        | Ikkinchi avtobusda to'lov*                 | 1 000                                             |
|            |                                        | Uchinchi va keyingi<br>avtobuslarda to'lov | 0                                                 |
| 2.         | 1 soatlik T+A+A+A                      | Tramvayda to'lov*                          | 2 000                                             |
|            |                                        | Birinchi avtobusda to'lov*                 | 1 000                                             |
|            |                                        | Ikkinchi avtobusda to'lov*                 | 1 000                                             |
|            |                                        | Uchinchi va keyingi<br>avtobuslarda to'lov | 0                                                 |
| 3.         | 1 soatlik A+T+A+A                      | Birinchi avtobusda to'lov*                 | 2 000                                             |
|            |                                        | Tramvayda to'lov*                          | 1 200                                             |
|            |                                        | Ikkinchi avtobusda to'lov*                 | 1 000                                             |
|            |                                        | Uchinchi va keyingi<br>avtobuslarda to'lov | 0                                                 |
| 4.         | 1 soatlik A+A+T+A                      | Birinchi avtobusda to'lov*                 | 2 000                                             |
|            |                                        | Ikkinchi avtobusda to'lov*                 | 1 000                                             |
|            |                                        | Tramvayda to'lov*                          | 1 200                                             |
|            |                                        | Uchinchi va keyingi<br>avtobuslarda to'lov | 0                                                 |

|    |                   |                            |       |
|----|-------------------|----------------------------|-------|
| 5. | 1 soatlik A+A+A+T | Birinchi avtobusda to'lov* | 2 000 |
|    |                   | Ikkinchi avtobusda to'lov* | 1 000 |
|    |                   | Uchinchi avtobusda         | 0     |
|    |                   | Tramvayda to'lov*          | 1 200 |

A - avtobus;

T - tramvay;

Avtobusning faqat old eshikdan chiqishga ruxsat etiladi.

Yo'lovchi birinchi transportga chiqishdagi to'lov qilingan (faqat transport kartasi orqali) vaqtdan boshlab hisob davri boshlanadi.

Bir soatlik tarifda tramvaydan faqat bir marta foydalanish tavsiya etiladi. Ikkinchi marta yangidan 60 minutlik hisob davri boshlanadi.

Izoh\*: Imtiyozli transport kartalaridan foydalanuvchilar (*pensionerlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, talabalar, umumiy o'rta ta'lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari hamda texnikumlar o'quvchilari*) uchun 50% chegirma qo'llaniladi.